

ISSN 2181-2764
2026



**SHARQ
FILOLOGIYASI
JURNALI**




**ВОСТОЧНЫЙ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ**



**ORIENTAL
JOURNAL
OF PHILOLOGY**

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE LEXICAL-SEMANTIC NATURE AND CLASSIFICATION FEATURES OF CLASSICAL WORKS ON SYNONYMY IN ARABIC LINGUISTICS***Azizjon M. Muxammadjonov**Instructor**Higher School of Arab Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*azizmuhammadiy222@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: tarāduf works, Arabic linguistics, lexical-semantic features, synonymous units, semantic differentiation, Arabic lexicography, semantic field, thematic lexicons, works on semantic distinctions, synonymous layers.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This study examines taraduf works in Arabic linguistics, namely works devoted to synonymy, with particular attention to their lexical-semantic nature and classificatory features. The research classifies these sources into two groups on the basis of their content and criteria, and elucidates their scholarly significance. The novelty of the study lies in the fact that taraduf works are interpreted not merely as compilations of synonyms, but as systematic sources that reflect semantic differentiation. In addition, the study reveals the denotative, connotative, stylistic, functional, and pragmatic distinctions among the lexical units presented in these works. The analysis demonstrates that the units recorded in taraduf works often denote not absolute synonymy, but rather semantic proximity, gradience of meaning, and differences in usage. Therefore, taraduf works are recognized as an important scholarly source for the study of semantic fields, lexical systematization, and synonymic relations in the Arabic language.

ARAB TILSHUNOSLIGIDA SINONIMIYAGA OID KLASSIK ASARLARNING LEKSIK-SEMANTIK TABIATI VA TASNIFIY XUSUSIYATLARI*Azizjon M. Muxammadjonov**O'qituvchi**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*azizmuhammadiy222@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: taraduf asarlari, arab tilshunosligi, leksik-semantik xususiyatlar, mutarodif birliklar, semantik differentsiatsiya, arab leksikografiyasi, ma'no maydoni, tematik lug'atlar, tafovut asarlari, sinonimik qatlamlar.

Annatsiya: Ushbu ishda arab tilshunosligidagi taraduf, ya'ni "sinonim" asarlari, ularning leksik-semantik tabiati hamda tasnifiy xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda mazkur manbalar mazmuniy-mezoniy jihatdan ikki guruhga ajratilib, ularning ilmiy ahamiyati yoritilgan. Ishning yangiligi taraduf asarlarining faqat sinonimlar yig'indisi sifatida emas, balki semantik differentsiallikni aks ettiruvchi tizimli manbalar sifatida baholanganidir. Shuningdek, ulardagi birliklarning denotativ, konnotativ, uslubiy, funksional va pragmatik farqlari ochib berilgan. Tahlil natijasida bu asarlarda keltirilgan birliklar ko'pincha mutloq ma'nodoshlikni emas, balki semantik yaqinlik, ma'no darajalari va qo'llanish tafovutlarini ifodalashi aniqlangan. Shu bois, taraduf asarlari arab tilidagi ma'no maydonlari, leksik tizimlilik va sinonimik munosabatlarni o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida e'tirof etiladi.

**ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА И КЛАССИФИКАЦИОННЫЕ
ОСОБЕННОСТИ КЛАССИЧЕСКИХ ТРУДОВ ПО СИНОНИМИИ В АРАБСКОМ
ЯЗЫКОЗНАНИИ**

Азизжон М. Мухаммаджонов

Преподаватель

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

azizmuhammadiy222@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: труды по тарадуфу, арабское языкознание, лексико-семантические особенности, синонимические единицы, семантическая дифференциация, арабская лексикография, семантическое поле, тематические словари, труды о смысловых различиях, синонимические пласты.

Аннотация: В данной работе проанализированы труды по тарадуфу в арабском языкознании, то есть сочинения, посвящённые синонимии, а также их лексико-семантическая природа и классификационные особенности. В исследовании указанные источники были разделены на две группы по содержательно-критериальному принципу, а их научная значимость была раскрыта. Научная новизна работы заключается в том, что труды по тарадуфу рассматриваются не только как

совокупность синонимов, но и как системные источники, отражающие семантическую дифференциацию. Кроме того, выявлены денотативные, коннотативные, стилистические, функциональные и прагматические различия единиц, представленных в данных трудах. В результате анализа установлено, что приведённые в этих сочинениях единицы выражают, как правило, не абсолютную синонимию, а семантическую близость, степени значения и различия в употреблении. В связи с этим труды по тарадуфу признаются важным научным источником для изучения семантических полей, лексической системности и синонимических отношений в арабском языке.

Kirish. Arab tilshunosligida sinonimiya hodisasi qadimdan leksik-semantik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etib kelinadi. Bir umumiy ma’no maydoni doirasida birlashgan, biroq ifoda shakli jihatidan farqlanuvchi birliklar o‘rtasidagi munosabatni aniqlash arab leksikografiyasi va semantik tafakkur taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, umumiy tarāduf (sinonim) asarlari arab tilidagi ma’nodosh birliklarni jamlash, tartibga solish va tavsiflashga xizmat qilgan muhim ilmiy manbalar sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur yo‘nalish klassik arab olimlari tomonidan turli shakllarda yoritilgan. Jumladan, Asma’iyning مَّا اخْتَلَفَتْ أَلْفَاظُهُ وَاتَّفَقَتْ مَعَانِيهِ mā ikhtalafat alfāzuhu wa-ttafaqat ma’ānīhi “So‘zlari farqlanib, ma’nolari bir xil bo‘lgan birliklar”, Abu Ubaydning بَابُ اخْتِلَافِ الْأَلْفَاظِ بِاتِّفَاقِ الْمَعَانِي bāb ikhtilāf al-alfāz bi-ittifāq al-ma’ānī “So‘zlar turlicha bo‘lib, ma’nolari bir xil bo‘lgan birliklar bobī”, Rummoniyning الْأَلْفَاظُ الْمُتَرَادِفَةُ الْمُتَقَارِبَةُ الْمَعَانِي al-alfāz al-mutarādifa al-mutaqāriba al-ma’ānī “Ma’nolari bir-biriga yaqin bo‘lgan mutarādif so‘zlar”, Jayyoniyning الْأَلْفَاظُ الْمُخْتَلِفَةُ فِي الْمَعَانِي الْمُؤْتَلِفَةِ al-alfāz al-mukhtalifa fī al-ma’ānī al-mu’talifa “Ma’nosi uyg‘un, ifodasi turlicha bo‘lgan so‘zlar” nomli asarlari sinonimiya masalasining dastlabki nazariy va amaliy manbalari qatoriga kiradi. (al-Aşma‘ī, 1987; Abū ‘Ubayd, 1989, Vol. 1; al-Rummānī, 1987; al-Jayyānī, 1991). Shuningdek, Abu Hilol Askariyning كِتَابُ التَّلْخِصِ فِي مَعْرِفَةِ أَسْمَاءِ الْأَشْيَاءِ kitāb al-talkhīṣ fī ma’rifat asmā’ al-ashyā’ “Ashyolar nomlarini bilishga doir qisqacha kitob”, Saolibiyning فِقْهُ اللَّغَةِ وَأَسْرَارُ الْعَرَبِيَّةِ fiqh al-lugha wa-asrār al-‘arabiyya “Til fiqhi va arab tilining sir-asrorlari” kabi manbalar ham ushbu yo‘nalishning keyingi taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan. (al-‘Askarī, 1993, Vol. 1; al-Sa‘ālibī, 1999).

Biroq tarāduf asarlarini faqat mutloq sinonimlar jamlanmasi sifatida talqin etish masalaning mohiyatini to‘liq yoritmaydi. Chunki bu manbalarda bir umumiy semantik markaz atrofida birlashgan birliklar ko‘pincha aynan bir xil ma‘noni emas, balki o‘zaro yaqin, ammo ayrim denotativ, uslubiy va funksional tafovutlarga ega ma‘nolarni ifodalaydi. Shu sababli umumiy tarāduf asarlarini semantik differensiallik nuqtayi nazaridan qayta tahlil qilish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tarāduf asarlarining leksik-semantik xususiyatlarini yoritish, ularda sinonimik birliklarning ifodalanish usullarini aniqlash hamda semantik yaqinlik bilan birga ma‘no tafovutining qay tarzda aks ettirilganini ko‘rsatishdan iborat. Ushbu yondashuv tarāduf asarlarining arab leksikografiyasi tarixidagi o‘rni va ilmiy ahamiyatini yanada aniqroq belgilashga xizmat qiladi. Tadqiqot materiali mazmuniy-mezoniy jihatdan ikki guruhga ajratildi: birinchi guruhga to‘liq mutarādif yoki mutarādif sifatida taqdim etilgan birliklarga bag‘ishlangan asarlar, ikkinchi guruhga esa ko‘p miqdordagi sinonim leksemalarni o‘z ichiga olgan lug‘aviy manbalar kiritildi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-chog‘ishtirma, leksik-semantik, kontekstual va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ishning umumiy tuzilishida dastlab manbalar tasniflandi, so‘ng ulardagi sinonimik qatorlarning berilish usullari tahlil qilindi, keyingi bosqichda esa yordamchi manbalar bilan qiyoslash asosida birliklar o‘rtasidagi denotativ, uslubiy va funksional tafovutlar aniqlandi. Metodologik jihatdan tadqiqot tarāduf asarlarini faqat sinonimlar jamlanmasi sifatida emas, balki semantik differensial belgilarni ham aks ettiruvchi leksik-semantik manbalar sifatida o‘rganishga tayandi.

Natijalar. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, arab tilshunosligidagi tarāduf asarlarini mazmuniy-mezoniy jihatdan ikki asosiy guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga to‘liq mutarādif yoki mutarādif sifatida taqdim etilgan birliklarga bag‘ishlangan maxsus asarlar, ikkinchi guruhga esa ko‘p miqdordagi sinonim leksemalarni o‘z ichiga olgan tematik-lug‘aviy manbalar kiradi. Mazkur tasnif tarāduf an‘anasining ichki tuzilishini aniqlashtirish va uning leksik-semantik tabiatini to‘g‘ri talqin etish imkonini berdi.

Birinchi guruhga mansub asarlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, Asma‘iy, Abu Ubayd, Rummoniy va Jayyoniy kabi mualliflar sinonimik birliklarni ko‘pincha izohsiz yoki qisqa ko‘rsatkichlar asosida ketma-ket sanab o‘tgan. Biroq bu birliklar amalda har doim ham mutloq ma‘nodosh emas. Aksincha, ular o‘rtasida referensial, kontekstual va funksional tafovutlar kuzatiladi. Masalan, Asma‘iy asarlarida ayrim birliklar inson va hayvonot olamiga nisbatan qo‘llanish doirasiga ko‘ra farqlanadi, Rummoniyda “uyqu” maydoniga oid leksemalar uyquning turli bosqich va darajalarini ifodalaydi, Jayyoniyning “maqto‘v” maydoniga mansub birliklari esa maqto‘vning turli usullari, vaziyatlari va baholash xususiyatlarini bildiradi. Bu holat mazkur

asarlarda sinonimiya sof tengma'nolilikka emas, balki semantik yaqinlikka asoslanganini ko'rsatadi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi manbalar, xususan, الغريب المصنف al-gharīb al-muṣannaf “Tasniflangan nodir so‘zlar”, كتاب الجرائيم kitāb al-jarāthīm “Mavzularga ajratilgan lug‘aviy birliklar kitobi”, كتاب التلخيص في معرفة أسماء الأشياء kitāb al-talkhīṣ fī ma‘rifat asmā‘ al-ashyā‘ “Ashyolar nomlarini bilishga doir qisqacha kitob”, كتاب مجمع اللغة kitāb majma‘ al-lugha “Tilning majmuasi kitobi”, فقه اللغة وأسرار العربية fiqh al-lugha wa-asrār al-‘arabiyya “Til fiqhi va arab tilining sir-asrorlari” kabi asarlar tahlili bu manbalarda sinonimik qatorlar nihoyatda keng ko‘lamda berilganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ushbu asarlar faqat sinonimlarni ro‘yxatlash bilan cheklanmay, ularning ma‘no nozikliklari, predmetning jihatlari, darajalari, sifati va qo‘llanish muhitini ham yoritadi. Natijada ular sinonimlar xazinasini bo‘lish bilan birga, semantik differensiallikni aks ettiruvchi lug‘aviy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhokama. Tadqiqot materiallarining batafsil tahlili shuni ko‘rsatadiki, arab tilshunosligidagi umumiy tarāduf asarlarini bir xil tipdagi lug‘atlar majmui sifatida emas, balki mazmuniy-mezon jihatdan kamida ikki yirik qatlamga ega bo‘lgan murakkab leksikografik-semantik hodisa sifatida talqin qilish zarur. Birinchi qatlamga ma‘noda birlashuvchi, ya‘ni to‘liq mutarādif yoki mutarādif sifatida taqdim etilgan birliklarga bag‘ishlangan maxsus asarlar kiradi. Ikkinchi qatlamga esa arab leksikologiyasida نُظُمُ المعنى nuzum al-ma‘nā – “ma‘no tizimlari” deb atalgan, tarkibida ko‘plab مترادف mutarādif – “ma‘nodosh birlik” larni qamrab olgan tematik-lug‘aviy manbalar mansubdir. Shu bois umumiy tarādufni oddiy “sinonimlar ro‘yxati” sifatida emas, balki turli darajadagi semantik yaqinlik va farqlanishni mujassam etgan tarixiy-lug‘aviy tizim sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

To‘liq mutarādif so‘zlarga bag‘ishlangan asarlar arab leksikografik an‘anasida bir necha sarlavhaviy shakllarda namoyon bo‘lgan. Jumladan, مَا اخْتَلَفَتْ أَلْفَاظُهُ وَاتَّفَقَتْ مَعَانِيهِ mā ikhtalafat alfāzuhu wa-ttafaqat ma‘ānīhi “So‘zlari farqlanib, ma‘nolari bir xil bo‘lgan birliklar”, الألفاظ الْمُتَقَارِبَةُ فِي الْمَعَانِيِ al-alfāz al-mukhtalifa fī al-ma‘ānī al-mu‘talifa – “Ma‘nosi uyg‘un, ifodasi turlicha bo‘lgan so‘zlar”, الألفاظ الْمُتَرَادِفَةُ الْمُتَقَارِبَةُ فِي الْمَعَانِيِ al-alfāz al-mutarādifa al-mutaqāriba al-ma‘ānī “Ma‘nolari o‘zaro yaqin bo‘lgan mutarādif so‘zlar” kabi nomlar shu yo‘nalishning asosiy sarlavhaviy ko‘rinishlari hisoblanadi. Bu nomlarning o‘ziyoq klassik arab olimlari til birliklari orasidagi semantik yaqinlikni mustaqil nazariy muammo sifatida ko‘rganini ko‘rsatadi.

Bu turdagi asarlarning dastlabki va asosiy namunasi sifatida Abu Sa‘id Abdulmalik ibn Qurayb al-Asma‘iy (taxm. 740–828/831)ning مَا اخْتَلَفَتْ أَلْفَاظُهُ وَاتَّفَقَتْ مَعَانِيهِ mā ikhtalafat alfāzuhu wa-ttafaqat ma‘ānīhi “So‘zlari farqlanib, ma‘nolari bir xil bo‘lgan birliklar” nomli asari qayd etiladi. U taxminan 740-yilda tug‘ilgan va 828-yilda vafot etgan, boshqa manbalarda 831-yil ham uchraydi, shuning uchun vafot sanasida kichik tafovut mavjud. Asma‘iy “ma‘noda umumlashgan,

biroq ifodasi turlicha bo‘lgan so‘zlar”ni bir necha usul bilan taqdim etadi, ba‘zan birliklarni izohsiz ketma-ket sanaydi, ba‘zan esa ularning o‘zaro ma‘nodoshligini مَعًا ma‘an – “birga”, جَمِيعًا jamī‘an – “barchasi”, سَوِيًّا sawiyyan “bir xil holda” kabi birliklar yordamida belgilaydi. (al-Aşma‘ī, 1987, p. 33). Ammo u faqat mutloq sinonimlikni qayd etish bilan kifoyalanmay, ayrim o‘rinlarda birliklarni لِشَرْطٍ li-shartīn “muayyan shart asosida” bog‘laydi, ayrim hollarda esa حُدُودٌ ḥudūd “chegaralar, ajratish mezonlari” orqali ularni bir-biridan farqlaydi. (al-Aşma‘ī, 1987, p. 39).

Asma‘iydagi misollar ayniqsa muhimdir. U كَثُرَ الْوَلَدُ فِي الْإِنْسَانِ وَالْحَيَوَانَ al-walad fī al-insān wa-l-ḥayawān “farzandlarning ko‘payishi inson va hayvonot olamida” semantik sarlavhasi ostida birliklarni shunchaki yig‘ib qo‘ymaydi, balki inson va hayvonga xos qo‘llanishlarni ajratadi. Xuddi shuningdek, وَاحِدٌ waḥd – “yakka, yakka kishi”, فَردٌ fard – “alohida, yakka”, شَخْصٌ shakhṣ – “shaxs, kimsa” birliklarini bir qatorda keltirganida, yuzaki qaraganda ular sinonim bo‘lib ko‘rinsada, ularning denotativ va qo‘llanish xususiyatlari jihatidan farqlanish imkonini ochiq qoldiradi. Yana bir misolda قَوْسٌ qaws – “kamon”, وَتْرٌ watar – “tor, tarang ip / tor qism”, شَيْءٌ shay‘ – “narsa” kabi birliklar qatorida dastlab ma‘nodosh ko‘ringan juftliklarning kontekstual farqi keyinroq ochiladi. (al-Aşma‘ī, 1987, p. 58). Bu holat ilk umumiy tarāduf manbalarining o‘zidayoq mutloq sinonimiya emas, balki qisman semantik yaqinlik va kontekstual differensiallik mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Asma‘iyning izidan bir qator muhim asarlar yaratildi. Ular orasida Abu Ubayd al-Qosim ibn Sallom al-Haraviy (taxm. 770–838)ning بَابُ اخْتِلَافِ الْأَلْفَافِ بِاتِّفَاقِ الْمَعَانِي bāb ikhtilāf al-alfāz bi-ittifāq al-ma‘ānī “So‘zlar turlicha bo‘lib, ma‘nolari bir xil bo‘lgan birliklar bobī”, Abu Muhammad Abbos ibn al-Faraj ar-Rayyoshiy (tug‘ilgan sanasi aniq emas, vaf. 870)ga nisbat berilgan مَا اخْتَلَفَتْ أَسْمَاؤُهُ مِنْ كَلَامِ الْعَرَبِ mā ikhtalafat asmā’uhu min kalām al-‘Arab “Arablar nutqida nomlari turlicha bo‘lgan birliklar”, Abulhasan Ali ibn Iso ar-Rummoniy (909–994)ning الْأَلْفَافُ الْمُتَرَادِفَةُ الْمُتَقَارِبَةُ الْمَعَانِي al-alfāz al-mutarādifa al-mutaqāriba al-ma‘ānī “Ma‘nolari yaqin bo‘lgan mutarādif so‘zlar”, shuningdek Jayyoniy nomi bilan bog‘langan الْأَلْفَافُ الْمُخْتَلِفَةُ فِي الْمَعَانِي الْمُتَلَفَةِ al-alfāz al-mukhtalifa fī al-ma‘ānī al-mu‘talifa – “Ma‘nosi uyg‘un, ifodasi turlicha bo‘lgan so‘zlar” bor. (Abū ‘Ubayd, 1989, Vol. 1; al-Rummānī, 1987; al-Jayyānī, 1991.).

Abu Ubayd al-Qosim ibn Sallom al-Haraviyning بَابُ اخْتِلَافِ الْأَلْفَافِ بِاتِّفَاقِ الْمَعَانِي bāb ikhtilāf al-alfāz bi-ittifāq al-ma‘ānī “So‘zlar turlicha bo‘lib, ma‘nolari bir xil bo‘lgan birliklar bobī” uning kitobidagi mustaqil bo‘limlardan biri bo‘lib, ayrim mutarādif birliklarga bag‘ishlangan qism sifatida qayd etiladi. (Abū ‘Ubayd, 1989, Vol. 2, pp. 616-618). Abu Muhammad Abbos ibn al-Faraj ar-Rayyoshiyga nisbat berilgan asar esa manbalarda asosan faqat nomi bilangina tilga olinadi. Bu holat umumiy tarāduf an‘anasida ayrim manbalar matni bizgacha yetib kelmagan bo‘lsa-da, ularning bibliografik izi va ilmiy nufuzi saqlanib qolganini ko‘rsatadi.

Abulhasan Ali ibn Iso ar-Rummoniy (909-994)ning الألفاظ المترادفة المتقاربة المعاني al-alfāz al-mutarādifa al-mutaqāriba al-ma‘ānī “Ma’ nolari o‘zaro yaqin bo‘lgan mutarādif so‘zlar” asari ham shu yo‘nalishdagi eng muhim manbalardandir. Muallif asarni boblarga ajratadi va ko‘pincha har bir bobda sarlavha ostidagi birliklarni izohsiz sanab o‘tadi. (ar-Rummānī, 1987, p. 49). Bir qarashda bu usul mutloq sinonimlar ro‘yxatini yaratishga qaratilgandek ko‘rinadi. Ammo “uyqu” bobidagi نُعَاسٌ nu‘ās – “mizg‘ish, uyqu bosishi”, وَسَنٌ wasan – “uyqu og‘irligi / mudroq holat”, سِنَاهُ sinah – “ko‘z ilinish, ko‘zning yumila boshlashi”, كَرَى karā – “uyqu bilan hushyorlik oralig‘i”, غَمَضٌ ghamad – “ko‘z yumilishiga yaqin holat” kabi birliklar boshqa leksikografik manbalar bilan qiyoslanganda, ular uyquning turli bosqich, daraja va fazalarini ifodalashi ayon bo‘ladi. Matnda yana هَجَعَ haja‘a – “quloq eshitib turgan holdagi uyqu”, رُقَادٌ ruqād – “uzoq davomli uyqu”, نَوْمٌ nawm – “uyqu”, سُبَاتٌ subāt – “chuqur uyqu”, إِغْفَاءٌ ighfā’ – “kesik-yengil uyqu”, نَوْمٌ اللَّيْلِ nawm al-layl – “tungi uyqu”, قَيْلُولَةٌ qaylūla – “kunduzgi uyqu” kabi birliklarning ham farqlari keltiriladi. (ar-Rummānī, 1987, p. 76). Demak, Rummoniydagi qatorlar “mutloq bir xil ma’no” emas, balki bir semantik maydon ichidagi ichki tabaqalanishni aks ettiradi.

Xuddi shu holat Jayyaniyga nisbat berilgan الألفاظ المختلفة في المعاني المؤلفة al-alfāz al-mukhtalifa fi al-ma‘ānī al-mu’talifa “Ma’nosi uyg‘un, ifodasi turlicha bo‘lgan so‘zlar” asarida ham kuzatiladi. (al-Jayyanī, 1991). “Maqtov” bobida مَدْحٌ madḥ – “madh, maqtov”, ثَنَاءٌ thanā’ – “e’tirof va maqtov”, حَمْدٌ ḥamd – “hamd, yaxshi sifat sabab maqtash”, تَمْجِيدٌ tamjīd – “ulug‘lab maqtash” birliklari keltiriladi, boshqa manbalar bilan qiyoslanganda esa إِطْرَاءٌ iṭrā’ – “takroriy, ba’zan oshirib maqtash”, مَدِيحٌ madīḥ – “madh”, تَكْرِيمٌ takrīm – “ulug‘lash, ikrom bilan yuksaltirish” kabi qo‘shimcha birliklar ham shu maydonga mansub ekani ko‘rinadi. (al-Jayyanī, 1991, p. 21). Bunda madḥ, ḥamd, thanā’, tamjīd, iṭrā’, takrīm bir umumiy semantik markaz atrofida birlashsada, kommunikativ vazifa, vaziyat, baholash ohangi va pragmatik yo‘nalishga ko‘ra farqlanadi. Shu bois bunday qatorlar ro‘yxat shaklida berilgan bo‘lsa ham, aslida semantik yadroning ichki strukturasi yoritilgan bo‘ladi Mazkur holatni boshqa mumtoz lug‘aviy va semantik asarlarda ham kuzatish mumkin (Ibn Sikkit, 1998, p. 321; al-Ḥamīdī, 1991, pp. 33-34, 250; Qudāma ibn Ja‘far, 1985, p. 297; ar-Rummānī, 1987, p. 53; Rāghib al-Iṣfahānī, 1987a, pp. 176-187; al-Yāzījī, 1985, Vol. 1, pp. 176-178).

Umumiy tarādufning ikkinchi katta qatlamini tematik-lug‘aviy manbalar tashkil etadi. Matnda bu yo‘nalish ba’zan الْمُجْمَلُ الْمُتَصَاعِفُ al-mujmal al-mutaḍā‘if “ko‘p qatlamli umumiy lug‘at” yoki الْمُجَرَّدُ الْمَعْنَايُ al-mujarrad al-ma‘ānī – “ma’ nolarni yalang‘och holda beruvchi lug‘at” tipidagi asarlar bilan bog‘lanadi. Bunday manbalar maxsus sinonimik risolalarni ham, bob va bo‘limlar darajasida keng sinonimik qatamlarni yorituvchi tematik tizimlarni ham o‘z ichiga oladi. Ularning maqsadi bitta ob’ekt yoki semantik maydonni uning turli jihatlari, ko‘rinishlari va differensial belgilarini ko‘rsatgan holda ochib berishdir. Shunday ekan, bu yerda sinonimiya oddiy

“bir ma’no – ko’p so’z” shakli emas, balki “bir semantik soha – ko’p differensial nomlar” modeli sifatida namoyon bo’ladi.

Bu qatlam ichida Abu Ubayd al-Qosim ibn Sallom al-Haraviy (taxm. 770–838)ning العَرِيبُ المصنَّفُ al-gharīb al-muṣannaf – “Tasniflangan nodir so’zlar” asari alohida o’rin tutadi. Matnda qayd etilishicha, bu asar qariyb 29 kitob va bobdan iborat bo’lib, خَلْقُ الْإِنْسَانِ khalq al-insān – “inson yaratilishi”, الْعَيْنُ al-‘ayn – “ko’z”, صِفَاتُ النِّسَاءِ ṣifāt al-nisā’ – “ayollarning sifatleri”, أَثَاثُ athāth – “jihozlar”, بِيُوتُ buyūt – “uyalar”, ثِيَابُ thiyāb – “kiyimlar”, أَمْتِعَةٌ amti‘a – “buyumlar”, إِبِلٌ ibil – “tuyalar”, غَنَمٌ ghanam – “qo’ylar”, طَيْرٌ ṭayr – “qushlar”, حَشَرَاتٌ ḥasharāt – “hasharotlar”, كَوَاكِبُ kawākib – “yulduzlar”, لَيْلٌ layl – “kecha”, نَهَارٌ nahār – “kun”, شَمْسٌ shams – “quyosh”, قَمَرٌ qamar – “oy”, زُرْعٌ zar‘ – “ekinlar”, كَرْمٌ karm – “uzumzor / uzum”, أَرِيحٌ arīj – “hidlar”, قَطْرٌ qaṭr – “yomg’ir tomchilari”, رِيحٌ rīḥ – “shamol”, سَحَابٌ saḥāb – “bulut”, أَمْطَارٌ amṭār – “yomg’irlar”, سِلَاحٌ silāḥ – “qurollar”, خَلْقُ الْفَرَسِ khalq al-faras – “otning yaratilishi / tuzilishi” kabi juda keng semantik maydonlarni qamrab oladi. (Abū Ubayd, 1989, Vol. 1, pp. 46, 47, 53-66, 96–100; Vol. 2, pp. 616-618). Bu tuzilishning o’ziyiq asarning oddiy sinonimlar ro’yxati emasligini ko’rsatadi.

Mazkur asarda sinonimlik turli usullar bilan beriladi: bir so’zni boshqasi bilan almashtirish, bog’lovchilar bilan qatorlab sanash, وَ wa – “va”, أَيْضًا ayḍān – “shuningdek”, وَكَذَلِكَ wa-kadhālika – “xuddi shuningdek” kabi vositalar bilan bir ob’ekt uchun ko’plab nomlarni ketma-ket keltirish. Shu bilan birga, matnda حُسْنٌ ḥusn – “go’zallik”, زَيْنٌ zayn – “ziynat, chiroy”, جَمَالٌ jamāl – “husn, go’zallik”; طَعَامٌ ṭa‘ām – “ovqat”, أَكْلٌ akl – “yeyish / taom”, رِزْقٌ rizq – “rizq, nasiba”; خَوْفٌ khawf – “qo’rquv”, خَشْيَةٌ khashya – “ichki qo’rquv, haybatli xavotir”, رَهْبَةٌ rahba – “vahimali qo’rquv”; غَضَبٌ ghaḍab – “g’azab”, سَخَطٌ sakhaṭ – “norozilik va g’azab”; سَيْفٌ sayf – “qilich”, حُسَامٌ ḥusām – “kesuvchi qilich”, مُهَنَّدٌ muhannad – “hind po’latidan qilich”, قَاطِعٌ qāṭi‘ – “keskir” kabi qatorlar ham tilga olinadi. Eng muhim nuqta shuki, Abu Ubayd ko’pincha umumiy ma’noni emas, differensial ma’noni ham ochadi: أَسَدٌ asad – “sher”, لَبْوَةٌ labwa – “urg’ochi sher”, سَبُعٌ sabu‘ – “yirtqich”, غَضَنَفَرٌ ghaḍanfar – “bahaybat sher”; سَحَابٌ saḥāb – “bulut” va غَمَامٌ ghamām – “quyuq bulut”; نَهَارٌ nahār – “kun” va دُهَاهٌ ḍuhā – “kunduzning ma’lum yorug’ payti” juftliklari shuni tasdiqlaydi. Demak, bu asar sinonimlar manbai bo’lishi bilan birga ma’no xususlashuvi manbai hamdir.

Shu guruhdagi yana bir muhim qatlam كِتَابُ الصِّفَاتِ kitāb al-ṣifāt “Sifatlar kitobi” tipidagi asarlardir. Matnda bu an’ana juda keng qamrovli bo’lgani, inson, ayollar, jihazlar, tog’lar, kiyimlar, tuyalar, qushlar, hasharotlar, yulduzlar, tun-kun, quyosh-oy, shamol, bulut, yomg’ir, qurollar va otga oid tematik maydonlarni o’z ichiga olgani qayd etiladi. Bu shuni ko’rsatadiki, arab tilshunosligida ma’no yaqinligi ko’pincha “bitta so’zning ko’p sinonimi” emas, balki “bir semantik sohaning ko’p differensial nomlanishi” tarzida idrok etilgan. Bu jihat zamonaviy semantik maydon nazariyasi bilan hamohangdir.

Abu Muhammad Abdulloh ibn Muslim ibn Qutayba ad-Dinavoriy (tug‘ilgan sanasi aniq emas, odatda 828–889 deb olinadi, vafoti 889)ning *كِتَابُ الْجَرَائِمِ* kitāb al-jarāthīm – “Jarāthīm kitobi” asari ham muhimdir. Matnda bu asarda ماء mā – “suv”, غَدِيرٌ ghadīr – “ko‘lmak”, سَيْلٌ sayl – “sel”, نَهْرٌ nahr – “daryo”, مُحِيطٌ muḥīṭ – “okean” yoki خَوْفٌ khawf – “qo‘rquv”, وَجَلٌ wajal – “ichki bezovta qo‘rquv”, خَشْيَةٌ khashya – “haybatli qo‘rquv”, رَهْبَةٌ rahba – “vahimali qo‘rquv” kabi qatorlar keltirilishi, she‘riy misollarning kamligi va asosan oyat-hadislar bilan cheklanishi qayd etiladi. (Ibn Qutayba, 1997, pp. 14, 55; 1988, p. 36). Bu esa asarning oddiy sinonimlar lug‘atidan ko‘ra kuchliroq semantik-tasnifiy manba ekanini ko‘rsatadi.

Kamol an-Naml (tug‘ilgan sanasi aniq emas, vaf. 922)ning *الْمُنْتَخَبُ مِنْ غَرِيبِ كَلَامِ الْعَرَبِ* al-muntakhab min gharīb kalām al-‘Arab “Arablarning nodir so‘zlaridan tanlanganlar” asari ham differensial yondashuvni yaqqol namoyon etadi. Matnda bu asar doirasida نَسْرٌ nasr – “burgut”, عَقَابٌ ‘uqāb – “qush turi / burgut”, بَارٌ bār – “lochin”, شَاهِينٌ shāhīn – “shohin”; ماء mā – “suv”, سَلْسَبِيلٌ salsabīl – “shirin, ravon suv”, زَمْزَمٌ zamzam – “Zamzam suvi”, عَذْبٌ ‘adhb – “chuchuk suv”, غَدِيرٌ ghadīr – “ko‘lmak”; لَيْلٌ layl – “kecha”, غَسَقٌ ghasaq – “qorong‘u tushish payti”, دُجَىٌ dujā – “zulmatli kecha”, سَحَرٌ saḥar – “tong oldi payti”; رِيحٌ rīḥ – “shamol”, نَسِيمٌ nasīm – “mayin shamol”, صَبَا ṣabā – “sabo shamoli”, دَبُورٌ dabūr – “g‘arbiy / qarshi shamol”, عَاصِفٌ ‘āṣif – “bo‘ronli shamol” kabi qatorlar aynan bir semantik markaz ostida turli differensial belgilarni aks ettiradi. (Kamā‘l an-Naml, 1989, Vol. 1, pp. 45, 161-162, 164, 242, 247-248).

Abu Hilol Hasan ibn Abdulloh al-Askariy (tug‘ilgan sanasi aniq emas, vaf. 1004)ning *كِتَابُ مَعْرِفَةِ أَسْمَاءِ الْأَشْيَاءِ* kitāb al-talkhīṣ fī ma‘rifat asmā‘ al-ashyā‘ “Ashyolar nomlarini bilishga doir qisqacha kitob” muhokamada markaziy o‘rin tutadi. Asar umumiy jihatdan so‘zlarning ma‘nolarini sharhlashga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, unda sinonimik birliklar va ularning tafovutlari ham ko‘rsatiladi. Muallif oyatlar, hadislar, fasih iboralar, maqollar va she‘riy namunalarni dalil sifatida ishlatadi. Boblari orasida *أَسْمَاءُ أَعْضَاءِ الْإِنْسَانِ* asmā‘ a‘dā‘ al-insān “inson a‘zolari nomlari”, *أَخْلَاقُ الْإِنْسَانِ وَأَعْمَالُهُ* akhlāq al-insān wa-af‘āluhu – “inson axloqi va amallari”, قَرَابَةٌ qarāba – “qarindoshlik”, لِبَاسٌ libās – “kiyim”, *أَطْعِمَةٌ وَأَشْرِبَةٌ* aṭ‘ima wa-ashriba – “taom va ichimliklar”, حَيَوَانَاتٌ ḥayawānāt – “hayvonlar”, *أَزْهَارٌ* azhār – “gullar” kabi mavzular bor. Muallif ba‘zan بِنْرٌ bi‘r – “quduq”, غَدِيرٌ ghadīr – “ko‘lmak”, عَيْنٌ ‘ayn – “buloq”, نَهْرٌ nahr – “daryo” kabi birliklarni farqlashsiz sanaydi, ba‘zan esa *كَذَلِكَ* kadhālika – “xuddi shunday”, *أَيْضًا* ayḍā – “shuningdek”, *بِمَعْنَى* bi-ma‘nā – “bir ma‘noda”, *مِثْلٌ* mithl – “kabi” kabi iboralar yordamida sinonimlikni ko‘rsatadi. Farqlar esa shart, istisno, sifat va aniq ma‘no tavsifi orqali ochiladi: *سَيْفٌ* sayf – “qilich”, *حُسَامٌ* ḥusām – “kesuvchi qilich”, *مُهَنَّادٌ* muhannad – “hind qilichi”, *بَحْرٌ* baḥr – “dengiz”, *مُحِيطٌ* muḥīṭ – “okean” kabilar bunga misoldir. Demak, bu asar keyinchalik al-Askariyning furūqiy sezgirligiga olib borgan dastlabki semantik maydon tajribasi sifatida ham talqin qilinishi mumkin. (al-‘Askarī, 1993, Vol. 1, pp. 15, 143, 197; 1991, pp. 39-42).

Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh al-Iskofiy (tug‘ilgan sanasi aniq emas, vaf. 1030)ning *كِتَابُ مَجْمَعِ اللُّغَةِ* kitāb majma‘ al-lugha “Tilning majmuasi kitobi” deyarli barcha maxsus sinonim sarlavha turlarini qamrab oladi. Muallif ko‘pincha birliklarni izohsiz sanaydi, ayrim hollarda esa *كَذَلِكَ* kadhālika – “xuddi shunday”, *وَاحِدٌ* wāḥid – “bir”, *سَوَاءٌ* sawā – “barobar”, *بِحَيْثُ* bi-ma‘nan wāḥid – “bir ma’noda”, *كُلُّهَا بِمَعْنَى وَاحِدٍ* kulluhā bi-ma‘nan wāḥid – “barchasi bir ma’noda” kabi iboralar bilan sinonimlikni ochiq ta’kidlaydi. Shunga qaramay, *لَيْلٌ* layl – “kecha” va *سَحْرٌ* saḥar – “tong oldi payti”, *رِيحٌ* rīḥ – “shamol” va *نَسِيمٌ* nasīm – “mayin shamol”, *بَحْرٌ* baḥr – “dengiz” va *مُحِيطٌ* muḥīṭ – “okean” singari juftliklarda ichki farq ham ko‘rsatadi. Demak, “bir ma’no” iborasining o‘zi bu an’anada absolyut identiklik emas, balki semantik yaqinlik doirasini anglatgan bo‘lishi mumkin. (al-Iskāfī, 1985, pp. 6, 12, 14, 16, 20, 34, 97, 138).

Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad as-Sa‘libiy (961–1038)ning *فِئَةُ اللُّغَةِ وَأَسْرَارُ العَرَبِيَّةِ* fiqh al-lugha wa-asrār al-‘arabiyya “Til fiqhi va arab tilining sir-asrorlari” asari ham umumiy tarāduf bilan semantik differensiallikni birga yorituvchi juda muhim manbadir. Bu yerda *فِئَةُ* fiqh – “teran anglash” so‘zi asar nomining o‘zidayoq til hodisalarini chuqur tushunish maqsadini ifodalaydi. Asar tematik lug‘at va maxsus sinonim manbalarining deyarli barcha mavzularini qamrab oladi. Unda ba‘zan sinonimlar ketma-ket sanaladi, ba‘zan esa *الْفَرْقُ بَيْنَ* al-farq bayna – “... o‘rtasidagi farq” shaklida farqlashga o‘tiladi. Matnda *أَسَدٌ* asad – “sher”, *قَسْوَرَةٌ* qaswara – “qudratli sher”, *هَزْبَرٌ* hazbar – “bahodir sher”, *لَيْثٌ* layth – “sher”, *غَضَنَفَرٌ* ghaḍanfar – “bahaybat sher”, *صَيْغَمٌ* ṣaygham – “shiddatli sher”; *لَبَانٌ* laban – “sut”, *حَلِيبٌ* ḥalīb – “sog‘ilgan sut”, *مَخِيضٌ* makhīḍ – “ayronlashgan sut”; *رَجُلٌ* rajul – “erkak”, *غُلَامٌ* ghulām – “o‘smir yigit”, *فَتَى* fatā – “yosh yigit”; *سَيْفٌ* sayf – “qilich”, *حُسَامٌ* ḥusām – “kesuvchi qilich”, *مُهَنْدٌ* muhannad – “hind qilichi” kabi qatorlar ayni ob’ekt yoki semantik markazning turli daraja va sifatlarini ochadi. Bu esa klassik an’anada sinonimiya va furūq qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvlar bo‘lganini ko‘rsatadi. (al-Sa‘alibī, 1999, pp. 46, 48, 49, 54, 69, 73, 168, 205).

Abulhasan Ali ibn Ismoil Ibn Sīdah al-Mursiy (1007–1066)ning *المُخَصَّصُ* al-mukhaṣṣas “Maxsus tartiblangan lug‘at” yoki matnda uchragan shaklda *المُحَسَّنُ* al-muḥassas asari, shuningdek Rog‘ib al-Isfahoniy (tug‘ilgan sanasi aniq emas, vafoti ko‘pincha 1108 deb beriladi, ammo bu ham mutloq qat’iy emas)ga nisbat berilgan *مُفْرَدَاتُ البَلَاغَةِ* mufradāt al-balāgha “Balog‘atning lug‘ati” hamda Abu Ishoq Ibrohim ibn Ismoil al-Ajdabiy at-Tarobulusiy (tug‘ilgan sanasi aniq emas, vafoti 1252, ayrim boshqa manbalarda bundan oldinroq sana uchraydi)ning *كِفَايَةُ الْمُتَحَوِّطِ فِي اللُّغَةِ* kifāyat al-mutaḥaffiz fi al-lugha “Tilni yodda saqlovchi uchun yetarli qo‘llanma” asarlari ham umumiy xulosani mustahkamlaydi. Ibn Sīdah asari ma’no lug‘ati uslubida ko‘plab kitob va fasllarga ajratilgan; Rog‘ib ko‘pincha farqlarni yashirin yoki kontekstual tarzda qoldiradi; Ibn Ajdabiy esa juda qisqa va ixcham usulda boblarga ajratilgan material beradi. Masalan, Rog‘ib qatorida *وَصَفٌ* waṣf – “tavsif”, *نَعْتُ* na‘t – “sifatlab atash”, *ذِكْرٌ* dhikr – “zikir, tilga olish” yoki *نَظَرٌ* naẓar – “qarash

/ nazar”, بَصَرَ baṣar – “ko‘rish”, تَفَكُّرٌ tafakkur – “mushohada” kabi birliklar ma’no harakati va kognitiv jarayon farqlari bilan ajraladi. (Rāghib al-Iṣfahānī, 1987a, pp. 176-187; 1987b, pp. 186-187, 389; Vol. 1, pp. 47, 51; Vol. 2, pp. 576, 597).

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijasida arab tilshunosligidagi umumiy tarāduf asarlarining leksik-semantik xususiyatlari yoritildi, ularning mazmuniy-mezoniy jihatdan ikki asosiy guruhga ajralishi aniqlandi hamda ularda sinonimik birliklarning berilish usullari tahlil qilindi. Tadqiqot boshida qo‘yilgan maqsadga erishildi: umumiy tarāduf asarlarida ma’no yaqinligi bilan bir qatorda semantik tafovut, qo‘llanish muhiti va ma’no nozikliklari ham ifodalanishi ko‘rsatib berildi.

Tahlillar shuni tasdiqladiki, bu turdagi manbalarda keltirilgan birliklar ko‘pincha mutloq ma’nodoshlikni emas, balki semantik yaqinlik, ma’no darajalari hamda denotativ, konnotativ, uslubiy, funksional va pragmatik farqlarni ifodalaydi. Shu jihatdan tadqiqot gipotezasi tasdiqlandi.

Natijada umumiy tarāduf asarlarining arab leksikografiyasi tarixidagi o‘rni va ilmiy ahamiyati yanada aniqroq belgilandi. Ular arab tilidagi ma’no maydonlari, sinonimiya va semantik differenziatsiya munosabatini o‘rganishda muhim nazariy hamda amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abū ‘Ubayd, al-Qāsim ibn Sallām. The Classified Rare Lexicon. Al-Gharīb al-muṣannaf. – Tunis, 1989. Vol. 2. – 543 p. (in Arabic)
2. al-‘Askarī, Abū Hilāl. Semantic distinctions in language. Al-Furūq fī al-lugha. – Beirut, 1991. – 442 p. (in Arabic)
3. al-‘Askarī, Abū Hilāl. The book of summary on knowing the names of things. Kitāb al-talkhīṣ fī ma‘rifat asmā’ al-ashyā’. – Beirut, 1993. – 401 p. (in Arabic)
4. al-Aṣma‘ī, ‘Abd al-Malik ibn Qurayb. Words differing in form and agreeing in meaning. Mā ikhtalafat alfāzuhu wa-ttafaḡat ma‘ānīhi. – Damascus, 1987. – 278 p. (in Arabic)
5. al-Hamadhānī, ‘Abd al-Raḡmān ibn ‘Isā. The book of literary expressions. Kitāb al-alfāz al-kitābiyya. – Beirut, 1991. – 319 p. (in Arabic)
6. al-Iskāfī, Muḡammad ibn ‘Abd Allāh. The compendium of language. Kitāb majma‘ al-lugha. – Beirut, 1985. – 362 p. (in Arabic)
7. Ibn Mālik, al-Ṭā‘ī. Different expressions in corresponding meanings. Kitāb al-alfāz al-mukhtalifa fī al-ma‘ānī al-mu‘talifa. – Jeddah, 1991. – 337 p. (in Arabic)
8. al-Kafawī, Ayyūb ibn Mūsā. The universals. Al-Kulliyyāt. – Beirut, 1993. – 1226 p. (in Arabic)
9. al-Kahīrī, Jamāl al-Dīn Yūsuf ibn ‘Abd Allāh. The gift of the eloquent in language system. Tuḡfat al-bulaghā’ fī nizām al-lugha. – Beirut, 2000. – 321 p. (in Arabic)

10. al-Rābi'ī, 'Īsā ibn Ibrāhīm al-Ḥimyarī. The system of rare expressions in language. *Nizām al-gharīb fī al-lugha*. – Damascus, 1980. – 344 p. (in Arabic)
11. al-Rummānī, 'Alī ibn 'Īsā. Synonymous and closely related expressions in meaning. *Al-alfāz al-mutarādifa al-mutaqāriba al-ma'ānī*. – Mansoura, 1987. – 299 p. (in Arabic)
12. al-Sa'ālibī, Abū Manṣūr. Philology and the secrets of the Arabic language. *Fiqh al-lugha wa-asrār al-'Arabiyya*. – Beirut, 1999. – 482 p. (in Arabic)
13. al-Suyūṭī, Jalāl al-Dīn. The flourishing work on the sciences of language and its literature. *Al-Muzhir fī 'ulūm al-lugha wa-adabihā*. – Beirut, 1987. – 961 p. (in Arabic)
14. Bursevī, Ismā'īl Ḥaqqī. The semantic distinctions of Ḥaqqī. *Furūq-i Ḥaqqī*. – Istanbul, 1892. – 258 p. (in Arabic)
15. Ibn Ajdabī, Ibrāhīm ibn Ismā'īl. The sufficiency of the memorizer in language. *Kifāyat al-mutaḥaffiz fī al-lugha*. – Tripoli, 1978. – 323 p. (in Arabic)
16. Ibn Qutayba, 'Abd Allāh ibn Muslim. The writer's manual. *Adab al-kātib*. – Beirut, 1988. – 384 p. (in Arabic)
17. Ibn Qutayba, 'Abd Allāh ibn Muslim. The book of al-jarāthīm. *Kitāb al-jarāthīm*. – Damascus, 1997. – 281 p. (in Arabic)
18. Ibn Sīda, 'Alī ibn Ismā'īl. The specialized lexicon. *Al-Muḥassas*. – Tunis, 1956. – 782 p. (in Arabic)
19. Ibn al-Sikkīt, Ya'qūb ibn Ishāq. The book of expressions. *Kitāb al-alfāz*. – Beirut, 1998. – 317 p. (in Arabic)
20. Kamāl al-Naml. Selections from the rare speech of the Arabs. *Al-Muntakhab min gharīb kalām al-'Arab*. – Mecca, 1989. – 386 p. (in Arabic)
21. Labbābīdī, Aḥmad ibn Muṣṭafā. Subtleties of language. *Laṭā'if al-lugha*. – Beirut, 1878. – 239 p. (in Arabic)
22. Lammens, Y. H. The unique pearls of language in semantic distinctions. *Farā'id al-lugha fī al-furūq*. – Beirut, 1889. – 262 p. (in Arabic)
23. Najafī, 'Alī Akbar. The Nizāmiyya gift on terminological distinctions. *Al-tuḥfa al-nizāmiyya fī al-furūq al-iṣṭilāḥiyya*. – Hyderabad-Deccan, 1921. – 301 p. (in Arabic)
24. Rāghib al-Iṣfahānī. The vocabulary of rare words in the Qur'ān. *Al-Mufradāt fī gharīb al-Qur'ān*. – Istanbul, 1987. – 523 p. (in Arabic)
25. Rāghib al-Iṣfahānī. The compendium of eloquence. *Majma' al-balāgha*. – Amman, 1987. – 318 p. (in Arabic)
26. Samīn al-Ḥalabī, Shihāb al-Dīn Aḥmad ibn Yūsuf. The mainstay of memorizers in interpreting rare expressions. *'Umdat al-ḥuffāz fī tafsīr gharīb al-i'jāz*. – Istanbul, 1987. – 681 p. (in Arabic)